

O'RTA OSIYO MUTAFAKKIRLARINING ESTETIK QARASHLARI.

Nazarova Gulshan Ismoilovna.

*BuxMTI akademik litseyi Ma'naviy-ma'rifiy va yoshlar bilan ishlash bo'yicha
direktor o'rinbosari.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'rta Osiyolik olimlarning estetik qarashlari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *Allomalar, g'oya, taraqqiyot, Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad Xorazmiy, esteteika.*

Biz uni turli zamonlarda ro'y bergan xilma-xil voqea va hodisalarning falsafiy fikr va ongida qanday aks etgani, ularni qanday G'oyalarning tug'ilishiga sabab bo'lgani, qaysi ta'limotlar insoniyat taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatgani, qaysi mafkura odamzodni ko'proq rivojlanish yoki tanazzul tomon etaklagani kabi haqiqatlarni bilib olish uchun o'rganamiz. Tarixni o'rganmoq va undan saboq olmoq har bir inson uchun zarurdir. Bu — falsafa bilan shug'ullanayotgan mutahassis uchun ham, uni o'rganayotgan talaba uchun ham birdek muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda zamonaviy fan tizimida fanlararo yondashuv rivojlanib borayotgan asosiy yo'nalish hisoblanadi. Bunda O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda ijod qilgan mutafakkirlarning beqiyos xizmatlari bor. Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad Xorazmiy kabi buyuk faylasuf va allomalarning asarlari jahon sivilizatsiyasining oltin xazinasidan munosib o'rin olgan.

Estetika yoxud nafosatshunoslik eng qadimgi fanlardan bin. Uning tarixi ikki yarim-uch ming yillik vaqtni o'z ichiga oladi. Biroq u o'zining hozi^gi nomini XVIII asrda olgan. Ungacha bu fanning asosiy muammosi bo'lmish go'zallik va san'at haqidagi mulohazalar har xil san'at turlariga bag'ishlangan risolalarda, falsafa hamda ilohiyot borasidagi asarlarda o'z aksini topgan edi.

Estetikaning falsafiy mohiyatini yana uning san'at asariga yondashuvida ko'rish mumkin. Ma'lumki, har bir san'atshunoslik ilmi oz tadqiqot obyektiga uch tomonlama — nazariy, tarixiy, tanqidiy jihatdan yondashadi. Masalan, adabiyotshunoslikni olaylik. Adabiyot nazariyasi faqat adabiyotgagina xos bolgan badiiy qonuniyatlarni, badiiy qiyofa yaratish usuli va vositalarini o'rganadi. Adabiyot tarixi muayyan tarixiybadiiy jarayonlar orqali badiiy adabiyotning rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradi. Adabiy tanqid esa adabiy-badiiy ijodning zamonaviy jarayonlarini tadqiq etadi va har bir yangi asarni baholaydi, asar ijodkorining ijodiy rivojlanishini kuzatib boradi. Musiqada ham, tasviriy san'atda ham va boshqa san'at turlarida ham shunday. Estetikada esa tadqiqot obyektiga yondoshuv uch emas, birgina nazariy jihatdan amalga oshiriladi: tarix ham, tanqid ham nazariyaga bo'ysundiriladi. To'g'ri, "estetika tarixi" degan ibora va shu nomda kurslar o'qitiladi. Lekin bu nom, ibora shartli tarzda qo'llaniladi. Chunki, u fan tarixi emas, balki tarixan davrlarga bo'lingan estetik nazariyalar tahlilidir.

Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn O'zluq ibn Tarxon Forobiy (873—950). Arastudan keyingi ustoz "Muallimi soniy" — "Ikkinchi muallim" nomini olgan

buyuk faylasuf. Uning qarashlarida ezgulik bilan goʻzallik maʼlum maʼnoda aynanlashtiriladi, biri ikkinchisida yashovchi hodisalar sifatida talqin etiladi. Shuning uchun uning asarlarida “Goʻzal xatti-harakatlar”, “Goʻzal qilmishlar” degan iboralarni uchratish mumkin. Goʻzallikka yetishishni u falsafa tufayli roʻy beradi, deb hisoblaydi. Har bir narsa hodisaning goʻzalligi uning oz borligini toʻla namoyon etishi va mukammallikka erishuvi bilan bogʻliq. Alloma faylasuf insonda ikki xil goʻzallikni farqlaydi — ichki va tashqi. U ichki goʻzallikni yuqori qoʻyadi va bu “Boyning boyligini bezab, kambagʻalning kambagʻalligini yashiradigan” goʻzallikni “adab” deb ataydi. Bunday goʻzallik yuksak axloqiy xatti-harakatlar va insoniy komillikda oʻzini namoyon etadi. Tashqi goʻzallikka kelganda, faylasuf tabiiy goʻzallikni har qanday bezanish, yasanishlardan yuqori qoʻyadi. Forobiy koʻp jildlik “Musiqqa haqidagi katta kitob” asarida musiqiy bilimni ikkiga — ijro sanʼati bilan bogʻliq boʻlgan musiqiy amaliyotga va musiqaning “sof oʻzini” ijrochilikka bogʻlanmagan holda oʻrganadigan nazariyaga ajratadi. Kitobda ohang tizimidagi uygʻunlik, zarb singari hodisalar tahlil etiladi. Shu munosabat bilan nafosatshunos tovushlar bilan emas, balki tovushlar tasavurini beruvchi raqqoslarning musiqiy gʻoyaga boʻysungan ohangiy harakatini anglatuvchi ritmik mimika — ohangiy harakat tushunchasini kiritadi. Shuningdek, kitobdan Yaqin va Oʻrta Sharqdan maʼlum boʻlgan musiqiy asboblari, ularni ijro etish yoʻllari, usullari haqida, umuman musiqqa tarixi toʻgʻrisida atroflicha maʼlumot olish mumkin.

Abu Ali Husayn ibn Abdulloh ibn Sino (980—1037). U Forobiy qarashlarini davom ettirib, musiqadan olinadigan lazzat musiqiy uygʻunlikning makonda yoyilishidan, pardalarning navbatma-navbat kelishidan deb biladi. Musiqada gap tovushining oʻzida emasligini, balki uni qanday chiqarish muhim ekanini aytadi, yaʼni bizda yoqimli yoki yoqimsiz sezgini tovushning oʻzi emas, balki uni paydo qilish usuli uygʻotadi. Musiqaning kelib chiqishini esa inson nutqining boyligi bilan bogʻlaydi: xushomad qilayotganda ovoz pasayadi, magʻrur soʻzlayotganda qatʼiy jaranglaydi va h. k. Musiqqa inson kayfiyatiga taqliddir, deydi Ibn Sino. Shuningdek, alloma goʻzallik borasida ham Forobiy izidan boradi. Uning fikriga koʻra, jismoniy goʻzallik bevosita qalb goʻzalligi bilan belgilanadi. “Ishq risolasi” asarida muhabbatning asosida goʻzallik yotishini “aslida muhabbat goʻzallikni maʼqullashdir”, degan fikr bilan ifodalaydi. Oʻrta asrlar nafosatshunosligida Ibn Sinoning “Sheʼr sanʼati” asari oʻziga xos oʻrin egallaydi. Unda qomusiy alloma Arastu “Poetika”sini sharhlar ekan, oʻziga xos yangiliklar kiritadi va sheʼrning keyinchalik mashhur boʻlib ketgan mana bu qoidasini keltiradi: “Sheʼr deb — obrazli soʻzlardan iborat boʻlgan ritmli, bir-biriga muvofiq iboralardan tarkib topgan hamda misralar bir-biriga teng, vaznlari qaytariladigan, oxirgi tovushlari bir-biriga osxshash satrlarga aytiladi”. Uning fikriga koʻra, sheʼr taqlidiy fikr natijasi olaroq uch xil yoʻl bilan yuzaga keladi. Birinchisi lahn — uygʻunlik, undan keyin kalom — soʻz keladi (bunda albatta timsolliobrazli soʻz nazarda tutiladi). Uchinchisi vazn. Mana shu uch yoʻlning bir-biriga mos kelishi natijasida sheʼr paydo boʻladi. Yoʻqsa koʻngildagidek sheʼr yaratish mumkin emas.

Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-Gʻazzoliy (1058—1111), Oʻrta asrlar musulmon Sharqi nafosatshunosligida mashshoiyyoʻnlik yoʻnalishi bilan birga tasawufiy yoʻnalish ham vujudga keldi. Uning buyuk vakili tasawuf falsafasi

asoschisi tengi kam ilohiyotchi Imom G‘azzoliydir. Uning “Ihyo ulum ad din” (“Din haqidagi ilmlarning tirilishi”) va “Kimyoi saodat” asarlarida estetikaga keng o‘rin berilgan. G‘azzoliy ularda go‘zallik tushunchasiga alohida to‘htaladi, manfaatsiz go‘zallik, oltinchi sezgi vositasida his etiladigan go‘allik haqida o‘ziga xos nazariyalarni o‘rtaga tashlaydi. Bularning hammasi muhabbat tushunchasi bilan bog‘liq holda tadqiq etiladi. Zero, G‘azzoliy muhabbatni besh turga bo‘ladi. Uning dastlabki uch turi asosan ahloqshunoslikka, so‘nggi ikki turi esa estetikaga taalluqli. Muhabbatning uchinchi turi haqida yozar ekan, G‘azzoliy go‘zallikka yondashuv, nafosat tuyg‘usining beg‘arazligi to‘g‘risida fikr yuritadi.

G‘azzoliyning estetik qarashlarida o‘simlik, hayvon hamda insonning tashqi muhitga munosabatiga, ularda estetik did, nafosat hissining boryo‘qligi muammolariga, shaxsning go‘zallikka munosabati, uning komil insonga aylanishi, nisbiy va mutlaq go‘zallik, ibodat bilan san‘atning farqi singari masalalarga to‘xtalib o‘tadi. G‘azzoliy ibodat bilan san‘atning farqi xususida so‘zlar ekan, zikmi raqs bilan aralashтирашlikka, jazava paytidagi murid harakatlarida o‘yin alomatlariga yo‘l qo‘ymaslikka chaqiradi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Jakbarov M. Komil inson g‘oyasi: tarixiy-falsafiy tahlil /M onografiya. T.: Abu Ali Ibn Sino nashriyoti, 2000.
2. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg‘unligi. / Monografiya. Toshkent: Universitet, 2009
3. Choriyev A. Inson falsafasi. 2 tomlik. Mustaqil shaxs. /Monograflya. T., Chinor ENK, 2002
4. Estetik tarbiya asoslari. —Toshkent: O‘qituvchi, 2001
5. G‘aybullayev O. Shaxs ma‘naviy kamoloti va estetik madaniyat /Monograflya. T., Chashma print, 2008